

PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONLARIDA INTERFAOL METODLAR QO’LLANILISHI

Saydullayeva Ziyodaxon
Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishda interfaol metodli darslarning afzalliklari haqida yoritilgan. Darslardagi interfaol metodlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, metod, ta’lim jarayoni, ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi, interfaol, interfaol metod, samaradorlik, singan tuxum metodi, boomerang metod.

Har bir metod darsning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limning an’anaviy shaklini saqlab qolgan holda, ta’lim oluvchini faoliyatini faollashtiradigan metodlardan foydalanish o‘zlashtirish samaradorligini oshirib beradi. Buning uchun ta’lim uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalanish, ta’lim beruvchi tamonidan ta’lim olguchilarni qiziqtirishni yanada ortirib, ularning bu vaqtdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida rag‘batlantirish, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lish hamda aqliy hujumlar uyushtirish, bahs va munozalarga sabab bo‘luvchi muommoli vaziyatlar yaratish, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlardan foydalanish va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni muttassil bajarishga undash talab etiladi. An’anaviy hamda interfaol metodli darslar orasida ayrim farqlar mavjud bo‘lib ular quyidagilarni tashkil etadi.

1. Qo‘llanilish darajasi. An’anaviy darslarning barcha ta’lim jarayonlarida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar uchun qulay bo‘lgan shaklda qo‘llanilsa, interfaol metodli darslarda esa ayrim mavzularga interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo‘llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo‘llaniladi.

2. Darsning maqsadi. An’anaviy darslarda bilim, ko‘nikmalar va malakalar shakllantirilib mustahkamlanadi. Interfaol darsda dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish hamda ularni bayon etib himoyalashga o‘rgatiladi.

3. Darsga tayyorgalik talablari. An’anaviy dars uchun dars reja, konspekt hamda didaktik vositalar mavjudligi yetarli bo‘lsa, interfaol darslarda esa interfaol dars ishlanma, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar, tarqatma materiallari va boshqa zaruriy vositalar ham kerak bo‘ladi.

4. Ta’lim oluvchining tayyorgaligi. Bunda o‘quvchi an’anaviy darslarda avvalgi dars konspekti hamda o‘qituvchi bergan topshiriqni bajarganligi kifoya qilsa, interfaol darslarda esa o‘tiladigan mavzu yuzasidan ham boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

5. Ta’lim oluvchining ta’lim jarayoniga tayyorgaligi uchun talablar. An’anaviy ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi oldingi dars uchun berilgan vazifalarni bajarsa, interfaol uslubdagi ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi oldingi dars bo‘yicha vazifalarni bajaribgina qolmay, yangi mavzu yuzasida ham boshlang‘ich tushuncha va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

6. Ta’lim oluvchining vazifaviy usullari. An’anaviy darslarda ta’lim oluvchining asosiy vazifasi ta’lim jarayonini tinglash, o‘zlashtirish, yuklatilgan topshiriqlarni bajarish. Interfaol uslubdagi maktablarda esa ta’lim beruvchi tamonidan berilgan topshiriqlarga ta’lim oluvchi o‘zining mustaqil fikrlari bilan yondashish hamda o‘zining mustaqil fikrlarini,

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

xulosalarini boshqa ta’lim oluvchilarning fikrlari bilan solishtirish va yakuniy xulosaga kelish ham dorkor.

7. Ta’lim jarayoni uchun ajratilgan vaqtning to’g’ri taqsimlanishi. Ta’lim jarayoniga ajratilgan vaqtning ko’p qismini ta’lim beruvchining yangi mavzu tushuntirilishi, tahlil qilish, bajariladigan topshiriqlarning tushuntirilishi, ta’lim oluvchilarning o’zlashtirishini nazorat qilishga sarflanadi. Interfaol uslubdagi ta’lim jarayonida esa ta’lim jarayoning ko’p qismi ta’lim oluvchilarning mustaqil topshiriqlarning bajarilishi, o’zaro fikr almashinishi, mushohada qilishlik, o’z xulosalarini bayon qilish hamda uni himoyalashga sarflanadi.

8. Ta’lim jarayonining modul va algoritmlari. An’anaviy ta’lim vaqtida darslarning moduli va algoritmlaridan har bir ta’lim beruvchi o’zi qo’llayotgan metodga muvofiq foydalanadi. Interfaol metodli darslarda esa oldindan tayyorlangan modular va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq ravishda tanlanadi va o’tkaziladi.

9. Ta’lim jarayonida ta’lim ta’lim oluvchilarda talab qilinadigan faollik darajasi. An’anaviy talim jarayonlarida ta’lim beruvchi har tamonlama faol bo’lmog’i, o’quvchilarning diqqatini jamlash, tushunish, fikrlar topshiriqlarini bajarish bo’yicha ham faol bo’lishi lozim. Ushbu tipdagi darslarda muloqot shakllari quydagicha bo’ladi: ta’lim beruvchi – guruh, ta’lim beruvchi – ta’lim oluvchi ta’lim oluvchi – talim beruvchi, guruh – ta’lim beruvchi. Interfaol metodli darslarda ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchi ham har tamonlama faol bo’lmog’i lozim. Bunday usuldagi darslarda hamkorlik, hamijodlik shakllari mavjud bo’lib ular quydagilar: ta’lim beruvchi – ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi – ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi – kichik guruh, kichik guruh – kichik guruh, ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi – ta’lim beruvchi, kichik guruh – ta’lim beruvchi, umumiy guruh – ta’lim beruvchi.

10. Bilimlarni o’zlashtirishning asosiy usullar. An’anaviy darslarda bilimlarning o’zlashtirishning asosiy usullari sifatida mulaqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar kirsar, interfaol metodli darsda mulaqot, mutolaa, mushohada, muhokama, munozara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar kiradi.

11. Mashg’ulot shakllari. An’anaviy usuldagi ta’lim jarayonida quydagi mashg’ulot shakllaridan keng foydalanilmoqda: ma’ruza, seminar, amaliy mashg’ulot, laboratoriya mashg’uloti, davr suhbatlari, bahs, munozara, konsultatsiya va boshqalar. Interfaol metodli darslarda esa quydagi mashg’ulot shakllaridan keng qo’llaniladi: ma’ruza, guruh yoki juft bo’lib ishlash, taqdimotlar, bahslar, munozara, davra suhbatlari, amaliy mashg’ulotlar va boshqalar.

12. An’anaviy darsdan va interfaol usuldagi darsdan kutiladigan natijalar. An’anaviy darslarda o’tilgan mavzu bo’yicha o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarini o’zlashtirishlari kutilsa, interfaol metodli darslarda mavzu bo’yicha o’quvchilarning o’z fikrlari, xulosalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilim olishga o’rgatish ham natija sifatida kutiladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, interfaol metodli darslar ta’lim jarayonini samaradorligini oshiribgina qolmay, ta’lim oluvchilarning ta’limga bo’lgan qiziqishlarini ortiradi. Ta’lim beruvchi tamonidan ta’lim jarayonidagi darsga mos va hos ravishda tanlangan metodlar doim samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Ro’ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi". Metodik qo’llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashrivoti, 2013.108 bet.

2. Hayitov A.I & Abdurasulova F. Interfaol metodlar asosida boshlang’ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. Science and innovation ISSN: 2181-3337